

OYBEK "BOLALIK XOTIRALARIM" QISSASI

Rahimova Shirin

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15210200>

Annotatsiya. Ijod-kuzatuvlar, hayot haqiqatlari va tasavvurlar mahsulidir. Bu maqolada Oybek "Bolalik xotiralarim" qissasi haqida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: Oybek, Bolalik xotiralarim, asar, xotira, qissa.

OYBEK'S STORY "MY CHILDHOOD MEMORIES"

Abstract. The product of creative observations, life realities and imagination. This article provides information about Oybek's story "My Childhood Memories".

Keywords: Oybek, My Childhood Memories, work, memory, story.

РАССКАЗ ОЙБЕКА "МОИ ДЕТСКИЕ ВОСПОМИНАНИЯ"

Аннотация: Творчество — это продукт наблюдений, реалий жизни и воображения. В данной статье представлена информация о рассказе Ойбека «Мои детские воспоминания».

Ключевые слова: Ойбек, воспоминания детства, произведение, память, рассказ.

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek o'tgan asrimizning ulkan adiblaridandir. Uning «Alisher Navoiy», «Qutlug' qon», "Quyosh qoraymas", «Oltin vodiyan shabadalar» kabi romanlari, «Bolalik», «Nur qidirib», «Alisherning bolaligi» kabi qissalari, she'r va dostonlari — jami 19 tomlik mukammal asarlari bizga meros bo'lib qoldi.

«Bolalik» qissasi bir necha bor nashr etilgan va turli avlodlarning ko'ngil mulkiga aylangan. Uni yangi asrimizning yosh avlodlari o'qir ekanlar, bundan yuz yil muqaddam bobolarining bolaligi qanday kechganligini bilib oladilar va bugungi chin ma'nodagi hurlik, mustaqillikning qadriga yetadilar.¹

Adibning «Bolalik xotiralarim» avtobiografik qissasi 1963-yilda yaratilgan. Qissaning bosh qahramoni yosh Muso, ya'ni Oybekning o'zidir.²

Yakubov Odil Isaxanovichning OYBEK USLUBINING SHAKLLANISH OMILLARI nomli maqolasida Oybekning «Bolalik xotiralarim» xotira-qissasi va «Qutlug' qon» romanidagi

¹ Oybek. Bolalik: Qissa va hikoyalar. — T.: «Sharq», 2008.

² <http://muzaffar.uz/mashhurlar-hayotidan/967-muso-toshmuhammad-ogli-oybek.html>

ayrim obrazlarni xalqona ohanglar orqali inkishof etishdagi Oybek mahoratini imkon qadar kuzatishga harakat qilingan.³

Alioxunning yangroq qo'shig'ida esa iqtisodiy nochorlik tufayli vaqtida oila qura olmagan, tirikchilik tashvishida sarson mardikoru kosibning orzu va armonlari mujassamlashgan:

Man safarga chiqqanda
Yor eshigida qolgan.
«Qachon kalisan yor?» dap,
Qora ko'zga yosh olgan.
Kunda ko'rmadim yorni,
Kunida ko'rarman dap,
Umid uzmadim yordan
O'lmasam suyarman dap. [4.52]

Oybek xotiralarga berilar ekan, o'sha paytdagi o'ylari haqida shunday yozadi: «Dasturxonda har kungi non, faqat non. Yog' ham yo'q, sut ham yo'q. Sigirni allaqachon sotib yuborganmiz. Qand ham yo'q, turshak ham yo'q. «Hech bo'lmaganda jiyda bo'lsa-chi»,—deb o'ylayman ichimda, ammo indamayman.»

Bu holat «Bolalik xotiralarim» xotira -qissasida keltirilgan mana bu xalq qo'shig'iga naqadar vobasta:

Minishga ulov bo'lsa,
Qish keldi, olov bo'lsa!
Qor qalin, sovuq qattiq,
Sergo'sht bir palov bo'lsa! ... [4.36]

“Bolalik xotiralarini” qissasi estetik janrda yozilgan. Asarda bosh qahramonning biografiyasi xalq hayoti davr hodisalari ijtimoiy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq holda tasvirlangan. Qissada bosh qahramon Musaboyning biografiyasini hikoya qilish orqali o'sha yillardagi xalq hayotining keng haqiqiy manzarasi chizilgan. Qissa o'z uslubining mayinligi lirizmga boyligini voqealar mantig'ining kuchliligi va izchilligi, obrazlarning aniqligi, qissa tilining ravon va jozibadorligi bilan kitobxonlarga manzur bo'ladi. Oybek bu qissani yozish bilan birga o'zining bolalar dunyosini, kichkintoylar psixologiyasini qanchalik chuqur bilishini

³ Yakubov Odil Isaxanovich. Oybek uslubining shakllanish omillari. Barqaror taraqqiyot va rivojlanish tamoyillari. www.uzresearchers.com. 8-b.;
Oybek. Bolalik xotiralarim. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1995.

namoyish etadi. Chunki bu asarda bolalar xarakteri va psixologiyasining turli xil, hatto ba'zan ko'z ilg'as darajada nozik bo'lgan murakkab tomonlari ham mohirlik bilan ochib berilgan.

Oybekning "Qutlug' qon" romani voqealari bilan "Bolalik xotiralari" qissasi voqealari bir-biriga o'xshaydi. M. Qo'shjonov ta'kidlaganidek: "Tarixdan ma'no izlashni Oybek umrining oxirigacha davom qildirdi. U o'zining "Bolalik xotiralari" qissasida temirchi Jo'ra, Tursunlar va Yo'lchilar davriga murojaat qiladi. "Bolalik xotiralari"da temirchi jo'rani eslatadigan kosib va masteroviylar obrazini yaratdi."Bolalik xotiralar"da yana bir xulosa Oybek poemalari bilan uchrashamiz. Bu esa adib qahramonlarining hayotiy ekanligini yana bir tasdiqlaydi.

Oybekning "Bolalik" qissasi shaxsiy sarguzashtlar ifodasi bo'lib qolmasdan, adib qalamining har bir harakatida katta umumlashmalar, davrning xarakterli voqealari, muhim masalalari talqini yotadi. Asar bosh qahramoni Muso doim bobosi Otaqo'zi bilan birga yuradi.

Undan latifalar, ertaklar, rivoyatlar tinglaydi. Ikkinchi bobosi (onasining otasi) ham Musoni juda yaxshi ko'radi. Muso bobosi huzurida xalifalarning turli hangomalarini eshitadi.

Onasi Karomatning Mashrab, Fuzuliy g'azallarini o'qishi Musoda kitobga havas uyg'otadi. U maktabga o'qishga borganda ham qunt bilan domlasi buyurgan vazifalarni bajaradi. U ayniqsa Navoiy she'riyatini juda sevadi. Ilk daf'a Navoiyning ijodini o'qir ekan, Navoiyga bo'lgan munosabatini quyidagi satrlarda bayon qiladi: "...Baytlari ishqiy, falsafiy, chuqur mazmunli... Haqiqatdan, Navoiy menda pok sevgi yaratdi. Uning she'rlarini zavq bilan, chuqur his bilan o'qiyman. Pok muhabbatni, chuqur ma'noni yoqimli hisni ilk daf'a Navoiydan o'rganaman".

Oybek xalq tili boyligini ruhini mukammal bilgan va ulardan ustalik bilan bilgan va ulardan ustalik bilan foydalana oladigan san'atkor bo'lganligi uchun ham "Bolalik xotiralari"ning tili shirali, sodda va ravon. Asar tilining bu fazilati, eng avvalo adibning tabiiylikni ta'minlashi bilan o'lchanadi. Chunki umuman ijodda, xususan tilda tabiiylikni ta'minlamay turib, obrazlilikni yuzaga keltirib bo'lmaydi.

Bemalol ayta olamizki, "Bolalik xotiralarim" xotira-qissasida yaqin o'tmish haqidagi haqiqat go'zal badiiy libosda aks etgan. Binobarin, bu asar nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki ulkan estetik qimmatga ham ega.

REFERENCES

1. Oybek. Bolalik: Qissa va hikoyalar. — T.: «Sharq», 2008.
2. <http://muzaffar.uz/mashhurlar-hayotidan/967-muso-toshmuhammad-ogli-oybek.html>

3. Yakubov Odil Isaxanovich. OYBEK USLUBINING SHAKLLANISH OMILLARI. Maqola. Barqaror taraqqiyot va rivojlanish tamoyillari. www.uzresearchers.com
4. Oybek. Bolalik xotiralarim. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1995.